



HUDUDIY INVESTITSION-INNOVATSION JARAYONLARNI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA YO'NALISHLARI

IMPROVING THE PROVISION OF REGIONAL INVESTMENT AND INNOVATION PROCESSES: FOREIGN EXPERIENCE AND DEVELOPMENT DIRECTIONS

¹Xamrayev Quvvat
Iskandarovich

¹Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, "Iqtisodiyot kafedrası" mustaqil izlanuvchisi, **G-mail:** q.xamrayev2324@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada Xorazm viloyatining investitsion-innovatsion ta'minlanganlik holatini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida baholash hamda ilg'or xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish orqali viloyatda hududiy investitsion-innovatsion jarayonlarni ta'minlashni takomillashtirishning asosli yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha vazifalar belgilash masalalari tahlil qilingan.

Eng. - This article, using official statistical data, analyzes the assessment of investment and innovation security in the Khorezm region and identifies objectives for developing key areas for improving the security of regional investment and innovation processes through a comparative analysis of advanced international practices.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ hudud, innovatsiya, investitsiya, sanoat, model, erkin iqtisodiy zona, texnopark, eksport, foyda solig'i, soliq-bojxona imtiyozlari.
❖ region, innovation, investment, industry, model, free economic zone, technology park, export, profit tax, tax and customs incentives.

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiya faolligi sezilarli darajada o'sdi: mamlakat iqtisodiyotiga 2017-yildan buyon barcha manbalar hisobidan 188 milliard dollar investitsiya kiritilib, investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30 foizdan oshdi. Biroq bu o'sishning hudud kesimidagi taqsimoti notekis bo'lib qolmoqda - investitsion va innovatsion resurslar, asosan, mamlakatning bir necha yirik markazida jamlanmoqda. Bunday hududiy nomutanosiblik mamlakatning umumiy innovatsion salohiyatidan to'liq foydalanishni cheklaydi va nisbatan kam rivojlangan hududlarda investitsion-innovatsion

jarayonlarni ta'minlashni takomillashtirish vazifasini dolzarb qilib qo'yadi.

Xorazm viloyati ana shunday, iqtisodiy jihatdan o'rtadan past darajada ta'minlangan hududlar qatoriga kiradi. Viloyat iqtisodiyoti asosan agrar yo'naltirilgan bo'lib, sanoat va innovatsion baza, shuningdek, investitsiyalarning texnologik komponenti hali yetarli darajada shakllanmagan. Shu bilan birga, viloyatda Xazorasp erkin iqtisodiy zonasi va yirik investitsiya loyihalari paketi ko'rinishida rivojlanish uchun zarur poydevor mavjud. Bu sharoit viloyat misolida hududiy investitsion-innovatsion jarayonlarni infratuzilmaviy ta'minlashning samarali yo'nalishlarini izlashni ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyatli qiladi.

Jahon amaliyotida hududiy innovatsion infratuzilmani rivojlantirishning samarali modellari shakllangan. Janubiy Koreya va Turkiya kabi mamlakatlar texnoparklar va texnologiyalarni rivojlantirish zonalarini orqali innovatsion faollikni poytaxtdan tashqariga muvozanatli yoyish, uni ilm-fan bilan bog'lash va aniq imtiyozlar tizimi orqali rag'batlantirish bo'yicha boy tajriba to'plagan. Ushbu tajribalarni O'zbekiston, xususan Xorazm viloyati sharoitiga moslashtirilgan holda o'rganish hududiy taraqqiyot vazifalarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi - Xorazm viloyatining investitsion-innovatsion ta'minlanganlik holatini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida baholash hamda ilg'or xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish orqali viloyatda hududiy investitsion-innovatsion jarayonlarni ta'minlashni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: viloyatning asosiy makroiqtisodiy va investitsion ko'rsatkichlarini respublika ko'rsatkichlari bilan qiyoslab baholash; hududiy innovatsion infratuzilmani rivojlantirishning ilg'or xorijiy modellarini (Janubiy Koreya va Turkiya misolida) o'rganish; hamda xorijiy tajribani viloyatning o'ziga xos iqtisodiy tuzilmasiga moslashtirish yo'nalishlarini asoslash.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Hududiy investitsion-innovatsion jarayonlarni ta'minlash masalasi iqtisodiy fanda bir nechta nazariy yo'nalish va empirik tadqiqotlar doirasida o'rganilgan. Mavjud adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: innovatsion rivojlanishning umumiy nazariy asoslari, hududiy innovatsion infratuzilma (texnopark va maxsus zonalar) bo'yicha xorijiy tadqiqotlar hamda O'zbekiston va uning hududlari sharoitiga oid mahalliy ishlanmalar.

Innovatsiya va hududiy rivojlanishning nazariy asoslari. Innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi roli bo'yicha klassik qarashlar J. Shumpeter ishlariga borib taqaladi; u innovatsiyani iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilgan [1]. Keyinchalik bu g'oyalar hududiy kontekstda rivojlantirildi. M. Porter o'zining klaster nazariyasida geografik jihatdan jamlangan o'zaro bog'liq korxonalar va institutlarning raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyatini asoslab berdi (Porter, M.E. (1998)). F. Kuk (P. Cooke) tomonidan ishlab chiqilgan "hududiy innovatsion tizimlar" (Regional Innovation Systems) konsepsiyasi esa innovatsion faollikni alohida korxonalar emas, balki mintaqa darajasidagi institutlar, bilim manbalari va o'zaro aloqalar tizimi sifatida qarashni taklif etadi [2, 3]. Bu yo'nalishni B. Asheim va boshqa tadqiqotchilar yanada chuqurlashtirgan. Innovatsion jarayonni boshqaruvda muhim model - H. Etzkowitz va L. Leydesdorff tomonidan asoslangan "uchlik spiral" (Triple Helix) bo'lib, u universitet, sanoat va davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni innovatsion rivojlanishning markaziy mexanizmi deb biladi [4]. Ushbu nazariyalar mazkur tadqiqotning kontseptual asosini tashkil etadi.

Texnoparklar va maxsus iqtisodiy zonalarining hududiy rivojlanishdagi roli ko'plab empirik tadqiqotlarda o'rganilgan. Janubiy Koreya tajribasini tahlil qilgan R. Hassink texnoparklarning hududga "ildiz otgan" (regionally embedded) innovatsion qo'llab-quvvatlash tizimlariga aylanish jarayonini ko'rsatib bergan [5]. Koreya texnoparklari bo'yicha keyingi tadqiqotlar (jumladan, Daedeok Innopolis va Gyeonggi texnoparki misolida) ularning "uchlik spiral" tamoyili asosida ishlashi va har bir hududning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilganligini ta'kidlaydi. Turkiya texnoparklari bo'yicha tadqiqotlar esa soliq imtiyozlari va universitet-sanoat hamkorligining innovatsion korxonalar sonini oshirishdagi rolini o'rganadi. Ushbu

ishlar hududiy innovatsion infratuzilmaning poytaxtdan tashqariga muvozanatli yoyilishi va ilm-fan bilan bog'lanishi muvaffaqiyatning asosiy shartlari ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida hududiy investitsion-innovatsion jarayonlar va maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar so'nggi yillarda faollashdi. Bir qator ishlarda viloyatlararo investitsion farqlar statistik modellashtirish, indekslar va regression usullar yordamida tahlil qilinib, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xorazm viloyati va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni misolida erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonolari va klasterlarning iqtisodiy-geografik xususiyatlari hamda rivojlanish tendensiyalari [6] o'rganilgan. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalarini hududlarni rivojlantirishning muhim omili sifatida tahlil qilgan ishlar [7] mavjud. Ushbu mahalliy tadqiqotlar viloyat darajasidagi infratuzilma masalalarini yorituvchi qimmatli empirik baza yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning empirik bazasini ikki guruh manbalar tashkil etadi. Birinchi guruh - Xorazm viloyati va O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma'lumotlari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Xorazm viloyati statistika boshqarmasi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining ochiq ma'lumotlaridan olingan. Tahlilga, asosan, 2024-yil yakuni va 2024-2025-yillarning choraklik ko'rsatkichlari - yalpi hududiy mahsulot (YHM), uning tarmoq tuzilmasi, aholi jon boshiga YHM, asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati ko'rsatkichlari kiritildi. Ikkinchi guruh hududiy innovatsion infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni aks ettiruvchi manbalar (Janubiy Koreya va Turkiya texnoparklari hamda texnologiyalarni rivojlantirish zonolari

bo'yicha rasmiy hisobotlar, ilmiy maqolalar va statistik ma'lumotlar).

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan kompleks tarzda foydalanildi:

1. Statistik-iqtisodiy tahlil - Xorazm viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi va tarkibini o'rganishda qo'llanildi.

2. Qiyosiy (komparativ) tahlil - viloyat ko'rsatkichlarini respublikaning boshqa hududlari hamda o'rtacha ko'rsatkichlar bilan solishtirish, shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasini O'zbekiston sharoiti bilan qiyoslash uchun ishlatildi.

3. Tizimli-strukturaviy tahlil - investitsion-innovatsion ta'minotni o'zaro bog'liq komponentlar (infratuzilmaviy, moliyaviy, institutsional, raqamli) tizimi sifatida o'rganishda asos bo'ldi.

4. Guruhlash va grafik tasvirlash usullari - hududlarni investitsion-innovatsion ko'rsatkichlar bo'yicha tabaqalashtirish va natijalarni jadval hamda diagrammalar shaklida ko'rgazmali taqdim etishda foydalanildi.


5. Mantiqiy umumlashtirish va induktiv-deduktiv usullar - empirik natijalardan kelib chiqib, xorijiy tajribani Xorazm viloyatiga moslashtirish yo'nalishlarini shakllantirishda qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xorazm viloyatining respublikaning iqtisodiy jihatdan nisbatan kam rivojlangan hududlari qatoriga kirishini ko'rsatadi. 2024-yil yakuniga ko'ra viloyatning yalpi hududiy mahsuloti (YHM) joriy narxlarda 51261,0 milliard so'mni tashkil etib, mamlakat umumiy YHMidagi ulushi atigi 3,5 foizga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich bo'yicha viloyat 14 ta hudud orasida 11-o'rinni egalladi va undan past natija faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax hamda Sirdaryo viloyatlarida qayd etildi. Viloyat YHMining real o'sish sur'ati 6,4 foizni tashkil etib, respublika bo'yicha o'rtacha darajaga yaqin bo'ldi.

Viloyat iqtisodiyotining tarmoq tuzilmasi uning agrar yo'naltirilganligini va sanoat-innovatsion bazasi zaifligini ko'rsatadi. 2024-yilda Xorazm viloyati YHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 34,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, sanoatning ulushi atigi 16,0 foizga, qurilish 8,9 foizga va xizmatlar sohasi 40,3 foizga teng bo'ldi. Sanoat ulushining pastligi (16,0 foiz) viloyatda yuqori qo'shilgan qiymatli va innovatsion mahsulot ishlab chiqarish salohiyati hali yetarli darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Hududiy nomutanosiblikning eng yaqqol ko'rsatkichi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan



1-rasm. 2024-yilda hududlar bo'yicha aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (AQSh dollarida)

Investitsiyalarning texnologik tuzilmasi tahlili ham viloyatda innovatsion komponentning cheklanganligini ko'rsatadi. 2024-yilning birinchi choragi ma'lumotlariga ko'ra, Xorazm viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlarining ulushi 60,0 foizni, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari 34,4 foizni, boshqa xarajatlar esa 5,6 foizni tashkil etdi. Investitsiyalarning katta qismining bino-inshootlar qurilishiga yo'naltirilishi va texnologik jihozlar ulushining nisbatan pastligi

YHM hajmidir. 2024-yilda Xorazm viloyatida bu ko'rsatkich 25452,4 ming so'mni, ya'ni dollar ekvivalentida 2012 AQSh dollarini tashkil etdi. Ushbu natija bo'yicha viloyat 14 ta hudud orasida 8-o'rinda joylashdi (1-rasm). Taqqoslash uchun, Navoiy viloyatida bu ko'rsatkich 8 545 dollarni, Toshkent shahrida esa 7223 dollarni tashkil etgan ya'ni Xorazm viloyatidagi aholi jon boshiga YHM hajmidan mos ravishda 4,2 va 3,6 baravar yuqoridir. Bu raqamlar respublika ichidagi hududiy tabaqalanishning sezilarli darajada chuqurligini tasdiqlaydi.

viloyat investitsiyalarining hali ko'p jihatdan ekstensiv xususiyatga ega ekanligini bildiradi.

Shu bilan birga, viloyatda investitsion-innovatsion faollikni rag'batlantiruvchi infratuzilma elementlari shakllantirilmogda. Viloyatda Xazorasp erkin iqtisodiy zonasi faoliyat yuritmogda va u mintaqa iqtisodiyotini modernizatsiya qilish hamda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning muhim vositasi sifatida belgilangan. 2024-yilda viloyat uchun umumiy qiymati 1,5 milliard dollarga teng investitsiya loyihalari paketi shakllantirildi. Jumladan, Xazorasp erkin iqtisodiy zonasida

xitoylik investorlar bilan lak-bo'yoq, shisha mahsuloti va elektrotexnika yo'nalishlarida umumiy qiymati 300 million dollarlik 4 ta loyiha joylashtirish, shuningdek, mahalliy ipkalavani qayta ishlash darajasini (mavjud 30 foizdan) 60 foizga yetkazish maqsadida 280 million dollarlik investitsiya jalb etish rejalashtirildi.

Mamlakat miqyosidagi tahlil esa erkin iqtisodiy zonalar samaradorligi bo'yicha umumiy muammolar mavjudligini ko'rsatadi: 2024-yilda respublikadagi 22 ta erkin iqtisodiy zonada faoliyat yuritgan 589 ta korxonaga jami 42 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa-da, bu mahsulotning atigi 16 foizi yuqori texnologiyali tovarlar, 18 foizigina tashqi bozorlarga yo'naltirilgan, 372 ta korxonaga esa umuman eksport amalga oshirmagan. Bu holat erkin iqtisodiy zonalarining innovatsion va eksport salohiyati to'liq ishga solinmaganligini ko'rsatadi va Xorazm viloyatidagi shu turdagi tuzilmalar uchun ham dolzarbdir.

Hududiy investitsion-innovatsion jarayonlarni infratuzilmaviy ta'minlashda ilg'or xorijiy tajribalarning tahlili bir qator muhim natijalarni aniqlash imkonini berdi.

Janubiy Koreyada hududiy innovatsion tizimning markaziy bo'g'ini sifatida texnoparklar tarmog'i shakllantirilgan. Birinchi texnoparklar 1998-yilda Savdo, sanoat va energetika vazirligi (MOTIE) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, dastlab ularning soni 6 ta edi; keyinchalik tarmoq butun mamlakat bo'ylab kengaytirildi va hozirgi kunda texnoparklar 19 ta shahar (Ulsan, Pusan va boshqalar) hududida faoliyat yuritmoqda. 1998-2005-yillar oralig'ida mamlakatda 16 ta yuqori texnologiyali park tashkil etilgan. Koreya modelining asosiy o'ziga xosligi shundaki, har bir texnopark aniq hududning ehtiyojlariga moslashtirilgan va "uchlik spiral" (sanoat-akademiya-davlat hamkorligi) tamoyili asosida faoliyat ko'rsatadi. Bunday yondashuv innovatsion faollikning poytaxt (Seul) bilan cheklanib qolmasdan, butun mamlakat hududlariga taqsimlanishini ta'minlagan.

Masalan, Tedok innovatsiya markazi (Daedeok Innopolis) 27,7 kvadrat kilometr maydonni egallab, unda 22 ming nafar tadqiqotchi va xodim faoliyat yuritadi hamda mamlakatdagi fan nomzodi darajasiga ega tadqiqotchilarning 11 foizi shu yerda jamlangan. Gyeonggi texnoparki esa o'z faoliyati davomida 6 mingdan ortiq hududiy korxonaga maxsus qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatgan.

Turkiyada hududiy innovatsion infratuzilma "Texnologiyalarni rivojlantirish zonolari" (Teknopark) shaklida tashkil etilgan. Ushbu zonalar 1980-yillarda paydo bo'lib, ularning huquqiy asoslari 2001-yilda qabul qilingan 4691-sonli Qonun bilan mustahkamlangan. 2023-yilning sentyabr holatiga ko'ra mamlakatda 87 ta faol texnopark mavjud bo'lib, ularning tarkibida 9 736 ta korxonaga faoliyat yuritgan; 2026-yilga kelib faol zonalar soni 100 dan oshib, ular 59 ta viloyatga yoyilgan. Turkiya modelining muhim xususiyati - texnopark rezidentlariga taqdim etiladigan kuchli soliq imtiyozlari tizimidir: dasturiy ta'minot, tadqiqot-ishlanma va dizayn faoliyatidan olingan foyda korporativ soliqdan to'liq (0 foiz stavkasida) ozod qilingan. Bu imtiyozlar texnoparklar tarmog'ining tez kengayishini va xususiy sektorning innovatsion faoliyatga jalb etilishini ta'minlagan. Texnoparklar shuningdek universitetlar bilan zich bog'langan: masalan, Izmir texnoparkida 159 ta mahalliy va xorijiy tadqiqot-ishlanma korxonasi, 1 100 dan ortiq xodim faoliyat yuritadi, eksport hajmi esa 90 million dollarga yaqinlashgan.

Ikkala mamlakat tajribasining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, hududiy investitsion-innovatsion jarayonlarni muvaffaqiyatli ta'minlashning umumiy belgilari quyidagilardan iborat: innovatsion infratuzilmaning poytaxtdan tashqarida, viloyatlarga muvozanatli yoyilishi; texnopark va zonalarining universitetlar va ilmiy markazlar bilan institutsional bog'lanishi; aniq imtiyoz va moliyaviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi; hamda har bir

hududning ixtisoslashuviga moslashtirilgan tabaqalashtirilgan yondashuv.

Yuqorida bayon etilgan empirik natijalarni umumlashtirgan holda, xorijiy

tajribaning Xorazm viloyati sharoitiga moslashtirilishi mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlari 1-jadvalda qiyosiy tarzda keltirilgan.

1-jadval

Hududiy innovatsion infratuzilmani ta'minlashda xorijiy tajriba va uni Xorazm viloyatiga moslashtirish yo'nalishlari

Tahlil mezonlari	Janubiy Koreya	Turkiya	Xorazm viloyati uchun moslashtirish yo'nalishi
Asosiy infratuzilma shakli	Hududiy texnoparklar (19 shaharda)	Texnologiyalarni rivojlantirish zonalarini (87+ ta)	Xazorasp EIZ negizida ixtisoslashgan texnopark tashkil etish
Boshqaruv modeli	“Uchlik spiral”: sanoat-akademiya-davlat	Universitet-texnopark bog'lanishi	Mahalliy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik o'rnatish
Rag'batlantirish	Davlat dasturlari, R&D grantlari	Foyda solig'idan to'liq ozod qilish (0%)	Tabaqalashtirilgan soliq-bojxona imtiyozlari
Hududiy taqsimot	Poytaxtdan tashqariga muvozanatli yoyish	59 viloyatga keng yoyilgan	IT Park filiali va biznes-inkubatorlar ochish
Ixtisoslashuv	Har bir hudud o'z yo'nalishida	Sohaga ixtisoslashgan parklar	Agroqayta ishlash va to'qimachilik klasterlari
Asosiy natija ko'rsatkichi	Yuqori texnologiyali eksport o'sishi	Korxonalar va eksport ko'payishi	Eksportbop va yuqori qiymatli mahsulot ulushini oshirish

Olingan natijalarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin. Xorazm viloyati investitsion-innovatsion ta'minlanganlik darajasi bo'yicha respublikaning o'rta va o'rtadan past hududlari qatoriga kiradi, uning iqtisodiyoti agrar yo'naltirilgan bo'lib, sanoat-innovatsion bazasi va investitsiyalarning texnologik komponenti hali zaif shakllangan. Shu bilan birga, viloyatda Xazorasp erkin iqtisodiy zonasi va shakllantirilgan yirik investitsiya loyihalari paketi ko'rinishida rivojlanish uchun zarur poydevor mavjud. Janubiy Koreya va Turkiya tajribasi esa hududiy innovatsion infratuzilmani muvozanatli yoyish, uni ilm-fan bilan bog'lash va aniq imtiyozlar tizimi orqali rag'batlantirish hududiy investitsion-innovatsion jarayonlarni ta'minlashning samarali yo'nalishlari ekanligini empirik tarzda tasdiqlaydi. Ushbu natijalarning nazariy va amaliy talqini hamda ulardan kelib chiquvchi takliflar tadqiqotning keyingi (“Muhokama”) qismida bayon etiladi.

Tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida hududiy investitsion-innovatsion jarayonlarni

ta'minlashda ikki asosiy muammo mavjudligini ko'rsatadi: investitsiyalarning sifat tuzilmasidagi nomutanosiblik va innovatsion infratuzilmaning yetarli rivojlanmaganligi. Viloyat YHMida sanoat ulushining atigi 16,0 foizni tashkil etishi hamda investitsiyalarning 60,0 foizi qurilish-montaj ishlariga yo'naltirilishi viloyatda investitsiyalarning hali ekstensiv, ya'ni texnologik yangilanishdan ko'ra hajmiy o'sishga qaratilgan xususiyatga ega ekanligini bildiradi. Aholi jon boshiga YHM hajmining Navoiy va Toshkent shahridan bir necha baravar kamligi esa bu nomutanosiblik nafaqat viloyat ichidagi, balki respublika miqyosidagi tizimli muammo ekanligini tasdiqlaydi. Bu natijalar viloyatlararo investitsion farqlarni statistik usullarda o'rgangan mahalliy tadqiqotlarning xulosalari bilan uyg'undur.

Xorijiy tajriba tahlili ushbu muammolarni hal etishning mumkin bo'lgan yo'nalishlarini nazariy jihatdan asoslaydi. Janubiy Koreya tajribasidagi “uchlik spiral” modeli - sanoat, akademiya va davlatning hamkorligi - Xorazm viloyatining asosiy zaifligi, ya'ni innovatsion

infratuzilmaning ilm-fan bilan bog'lanmaganligi muammosiga bevosita javob beradi. Koreyada innovatsion faollikning poytaxt bilan cheklanmasdan butun mamlakatga muvozanatli yoyilishi mamlakatimizdagi "Toshkent markazli" konsentratsiya muammosining hal etilishi mumkinligini ko'rsatadi. Turkiya tajribasi esa boshqa muhim jihatni - aniq va kuchli soliq imtiyozlari tizimining xususiy sektorni innovatsion faoliyatga jalb etishdagi hal qiluvchi rolini - namoyon etadi. Turkiyada foyda solig'idan to'liq ozod qilish hisobiga texnoparklar soni va ulardagi korxonalar sonining tez o'sishi, O'zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalar samaradorligi past (mahsulotning atigi 16 foizi yuqori texnologiyali, 18 foizi eksport qilingan) bo'lib qolayotgan sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, xorijiy modellarni Xorazm viloyatiga ko'chirishda uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Viloyat iqtisodiyotining agrar yo'naltirilganligi (qishloq xo'jaligi ulushi 34,8 foiz) shuni anglatadiki, mavhum yuqori texnologiyali parklar emas, balki viloyatning mavjud salohiyatiga tayanadigan - agroqayta ishlash va to'qimachilik (ip-kalava) klasterlariga ixtisoslashgan - innovatsion infratuzilma ko'proq samara berishi mumkin. Bu yondashuv Koreya modelidagi "har bir hududning ehtiyojiga moslashtirish" tamoyiliga to'g'ri keladi. Xazorasp erkin iqtisodiy zonasi va shakllantirilgan 1,5 milliard dollarlik loyihalar paketi bunday ixtisoslashgan infratuzilmani rivojlantirish uchun tayyor poydevor vazifasini o'tashi mumkin.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati shundaki, ular Xorazm viloyatida investitsion-innovatsion jarayonlarni ta'minlashni takomillashtirishning bir necha ustuvor yo'nalishini belgilash imkonini beradi: Xazorasp EIZ negizida mahalliy oliy ta'lim muassasalari bilan bog'langan ixtisoslashgan texnopark tashkil etish; viloyatga IT Park filiali

va biznes-inkubatorlarni joriy etish hamda investorlar uchun tabaqalashtirilgan soliq-bojxona imtiyozlari tizimini kuchaytirish lozim. Bu yo'nalishlar investitsiyalarning ekstensiv tuzilmasini intensiv (texnologik) yo'nalishga o'tkazishga va viloyatning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida hududiy investitsion-innovatsion jarayonlarni ta'minlash bo'yicha bir qator asosli xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Birinchidan, viloyat investitsion-innovatsion ta'minlanganlik darajasi bo'yicha respublikaning o'rta va o'rtadan past hududlari qatoriga kiradi. 2024-yilda viloyat yalpi hududiy mahsuloti mamlakat umumiy ko'rsatkichining atigi 3,5 foizini tashkil etib, aholi jon boshiga YHM hajmi (\$2 012) Navoiy va Toshkent shahridagi ko'rsatkichdan bir necha baravar past bo'ldi. Viloyat iqtisodiyotining agrar yo'naltirilganligi (qishloq xo'jaligi ulushi 34,8 foiz, sanoat atigi 16,0 foiz) va investitsiyalarning asosan qurilish-montaj ishlariga (60,0 foiz) yo'naltirilganligi viloyat investitsiyalarining hali ekstensiv, texnologik yangilanishdan ko'ra hajmiy o'sishga qaratilgan xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi hududiy investitsion-innovatsion jarayonlarni ta'minlashning samarali tamoyillarini aniqlash imkonini berdi. Janubiy Koreyaning "uchlik spiral" (sanoat-akademiya-davlat) modeli va innovatsion infratuzilmani poytaxtdan tashqariga muvozanatli yoyish tajribasi, shuningdek, Turkiyaning kuchli soliq imtiyozlari orqali xususiy sektorni innovatsion faoliyatga jalb etish modeli Xorazm viloyatining mavjud muammolariga bevosita javob beradi.

Uchinchidan, xorijiy tajribani viloyatning o'ziga xos iqtisodiy tuzilmasini hisobga olgan holda moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Viloyatning agrar salohiyatidan kelib chiqib, mavhum yuqori texnologiyali parklar emas,

balki agroqayta ishlash va to'qimachilik klasterlariga ixtisoslashgan innovatsion infratuzilmani rivojlantirish ko'proq samara beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Xorazm viloyatida hududiy investitsion-innovatsion jarayonlarni ta'minlashni takomillashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari taklif etiladi:

1. Xazorasp erkin iqtisodiy zonasi negizida mahalliy oliy ta'lim muassasalari bilan bog'langan, viloyatning ixtisoslashuviga (agroqayta ishlash, to'qimachilik) mos texnopark tashkil etish;

2. Viloyatga IT Park filiali, biznes-inkubatorlar va akseleratorlarni joriy etish hamda raqamli infratuzilma va IT-kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish;

3. Investorlar uchun hududning rivojlanish darajasiga moslashtirilgan, tabaqalashtirilgan soliq-bojxona imtiyozlari va

moliyaviy rag'batlantirish tizimini kuchaytirish;

4. Investitsiyalarning ekstensiv (qurilishga yo'naltirilgan) tuzilmasini intensiv - texnologik jihozlar va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotga yo'naltirilgan - yo'nalishga o'tkazish;

5. Viloyat darajasida investitsion-innovatsion jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi institutsional tuzilmalar faoliyatini va investorga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash.

Ushbu yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi Xorazm viloyatining innovatsion salohiyatini oshirishga, hududiy nomutanosiblikni kamaytirishga va viloyat iqtisodiyotini barqaror, yuqori qo'shilgan qiymatga asoslangan rivojlanish yo'liga o'tkazishga xizmat qiladi. Tadqiqotning kelgusi yo'nalishi sifatida viloyat korxonalari darajasida innovatsion faollikni ekonometrik baholash istiqbolli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Croitoru, "Schumpeter, J.A., 1934 (2008), *The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest and the Business Cycle*, translated from the German by Redvers Opie, New Brunswick (U.S.A) and London (U.K.): Transaction Publishers," 2012. Accessed: Jun. 03, 2026. [Online]. Available: <https://papers.ssrn.com/abstract=4499769>

2. "Porter, M.E. (1998) *Clusters and New Economics of Competition*. Harvard Business Review, 76, 77-90. - References - Scientific Research Publishing." Accessed: Jun. 03, 2026. [Online]. Available: <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=1629176>

3. P. Cooke, M. G. Uranga, and G. Etzebarria, "Regional systems of innovation: an evolutionary perspective," *Environ. Plan. A*, vol. 30, no. 9, pp. 1563-1584, 1998, doi: 10.1068/A301563.

4. H. Etzkowitz and L. Leydesdorff, "The dynamics of innovation: from National Systems and 'Mode 2' to a Triple Helix of university-industry-government relations," *Res. Policy*, vol. 29, no. 2, pp. 109-123, Feb. 2000, doi: 10.1016/S0048-7333(99)00055-4.

5. R. Hassink, "Towards regionally embedded innovation support systems in South Korea? Case studies from Kyongbuk-Taegu and Kyonggi," *Urban Studies*, vol. 38, no. 8, pp. 1373-1395, 2001, doi: 10.1080/00420980120080341.

6. A. A.K. and N. D.M., "Quyí amudaryo iqtisodiy rayonidagi erkin iqtisodiy zonalari va ularning rivojlanish tendensiyalari," *Экономика и социум*, no. 2-1 (117), 2024, doi: 10.5281/ZENODO.10822972.

7. S. D.S., "Erkin iqtisodiy zonalar – hududlarni rivojlantirishning muhim omili sifatida," *Экономика и социум*, no. 2-1 (117), 2024, Accessed: Jun. 03, 2026. [Online]. Available: <https://cyberleninka.ru/article/n/erkin-iqtisodiy-zonalar-hududlarni-rivojlantirishning-muhim-omili-sifatida>